International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

Metallurgiyaga Oid Terminlarning Polisemik Tadqiqi

O`tkirova Shahlo Asqar qizi

Navoiy Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

mazkur maqolada metallurgiya terminologiyasida uchraydigan polisemiya va omonimiya hodisalari hamda ularning ilmiy tarjima jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Terminologik tizimlarda bitta terminning bir nechta ma’noga ega bo‘lishi yoki shaklan bir xil bo‘lgan terminlarning turli ma’nolarni ifodalashi ilmiy kommunikatsiyada semantik noaniqliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillaridagi metallurgik terminlar lingvistik va qiyosiy metodlar asosida o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, metallurgiya terminlarida polisemiya texnologik jarayonlar va material xususiyatlari bilan bog‘liq holda yuzaga keladi, omonimiya esa ko‘pincha umumtil va maxsus terminologiya kesishgan nuqtalarda namoyon bo‘ladi. Tadqiqot terminologik tizimlarni standartlashtirish va ilmiy tarjima sifatini oshirish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Key words: polisemiya, omonimiya, metallurgiya terminologiyasi, terminologiya, ilmiy tarjima, qiyosiy tahlil.

Kirish

Tilshunoslikda polisemiya til birliklarining semantik xususiyatlarini ifodalovchi muhim hodisalardan hisoblanadi. Polisemiya bir so‘zning bir nechta o‘zaro bog‘liq ma’nolarga ega bo‘lishini anglatadi. Ko‘p ma’noli so‘zlarning barcha ma’nolari o‘zaro semantik bog‘lanishga ega bo‘lib, ular ko‘pincha kontekst orqali aniqlanadi[1].

Tilshunoslikda polisemiya hodisasi ko‘p qirrali semantik jarayon sifatida qaraladi. Har bir so‘zning lug‘aviy ma’nosi taraqqiyot jarayonida kengayib, yangi semantik qatlamlarni hosil qiladi. Bu jarayon inson tafakkuri va umumlashtirish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liq[2].

Ko‘p ma’nolilik ikki yo‘l bilan hosil bo‘ladi:

1) so‘zning yangi ma’no kasb etishi natijasida. Masalan, yer so‘zi dastlab bir ma’noli bo‘lgan, qolgan ma’nolar so‘zning ma’no tarkibi taraqqiyoti natijasida paydo bo‘lgan; 2) ko‘p

ma’noli so‘zdan yoki ko‘p ma’noli qo‘shimcha vositasida so‘z yasalishi natijasida. Ko‘p ma’noli so‘zlar qancha ma’noga ega bo‘lmasin, bu so‘zlar ma’nosi o‘zaro bog‘langan, ya’ni ma’nolar orasida qandaydir semantik aloqa mavjud bo‘ladi.

So‘zning ko‘p ma’nolilikini, asosan, matn hal etadi: so‘zning ishlatilish matni qanchalik rang-barang bo‘lsa, bu so‘z shunchalik ko‘p lug‘aviy ma’noni anglatadi.[3]

O‘zbek tilshunosligida ko‘p ma’noli so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishgabag‘ishlangan ishlar bir qancha. S. Usmonov, M. Sodiqova, T. Aliqulov, D. X. Bazarova, M.Mirtojiyev, M. Hakimova, B. Suyunov, G. Roziqova, Sh. Maxmaraimova, S. Raximovalarning ishlari shular jumlasidandir. [4] Ushbu tadqiqotlarda so‘z ma’nolarining taraqqiyoti, so‘zlarningo‘ziga xos tomonlari, mazmunan serqirraligi haqida fikr yuritib, ko‘pma’noli so‘zlarning leksikma’nolari, o‘zaro aloqasi, yuzaga kelish yo‘llarini ochib berilgan.

O‘zbek tilida ko‘pma’nolilik hodisasiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqot M.Mirtojiyevning “O‘zbek tilida polisemiya” nomli monografiyasi (1975) hisoblanadi. Ushbu monografiya 1984-yilda qayta tahrirlanib, nashr qilingan. Atoqli olim ko‘pma’nolilikning tildagi asosiy ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: “to‘rt yashar bola o‘z yoshiga nisbatan so‘z boyligieng cho‘qqisiga chiqqan hisoblanar ekan. U shu davrda o‘rta hisob bilan ikki ming so‘zni ishlatib, olti ming so‘zni fahmlay bilarkan. Agar so‘zlar ko‘pma’nolilikdan xoli bo‘lsa, o‘shabola avvalgi sharoitda bera oladigan fikrini taxminan o‘n ming so‘z orqali berib, kamida yigirmaming so‘zning farqiga borishi kerak bo‘ladi…So‘zning polisemantikligi so‘zlarni kam miqdordayodlab, nisbatan ko‘p ifoda etish va bunda fahmlashdan maksimal foydalanish imkoniyatini berar ekan. Bu boshqa tilni egallashda ham ancha qulaylikni yuzaga keltiradi va tilning eng yaxshi sifatlaridan hisoblanadi”.[5]

M.Hakimovaning “Semasiologiya” nomli o‘quv qo‘llanmasida ham ko‘pma’nolilikhaqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Olima bu hodisani bir narsaning nomi bilan yangi anglangan, o‘zlashtirilgan, hali nomga ega bo‘lmagan ikki narsa (predmet, belgi, harakat) nomlanishi deya izohlaydi. M.Hakimova polisemiyaning asosiy sabablaridan biri umumlashtirishekanligini quyidagicha izohlaydi. Umumlashtirish dunyoni anglashda va o‘zlashtirishdagi inson tafakkurining eng xarakterli xususiyatlaridan biri bo‘lib, voqelikdagi turli narsalar muayyan umumiyliklar asosida birlashtiriladi. Polisemiya ham umumlashtirish asosida hosil bo‘ladi. Bir narsaning nomi ikkinchi narsaga ham nom qilib berilar ekan, albatta, ular o‘rtasida umumiylikbo‘lishi lozim. [6] Boshqacha aytganda, bitta leksema bilan ifodalanadigan barcha ma’nolar muayyan umumiyliklar asosida o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Polisemantik umumlashtirish har bir til doirasida o‘ziga xos tarzda voqe bo‘lib, u milliylik xarakteriga ega. Darhaqiqat, ko‘pma’nolilik hodisasi umumlashtirish qonuniyati asosida ma’nolarni umumlashtirib, bir nom bilan atalishidir.

Metallurgiya terminologiyasi ilmiy-texnik terminologiyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, unda ko‘plab maxsus terminlar mavjud. Ushbu terminlarning ayrimlari bir nechta ma’noga ega bo‘lishi yoki turli kontekstlarda turli semantik funksiyalarni bajarishi mumkin. Shu sababli metallurgiya terminologiyasida polisemiya va omonimiya hodisalarini o‘rganish terminologiya nazariyasi va ilmiy tarjima uchun muhim ahamiyatga ega. [7]

Mazkur tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek metallurgiya terminologiyasida uchraydigan polisemik va omonimik terminlarni aniqlash hamda ularning semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Metodlar

Tadqiqot jarayonida bir nechta lingvistik metodlardan foydalanildi.

Birinchidan, leksik-semantik tahlil metodi yordamida metallurgiya terminlarining ma’no tuzilmasi o‘rganildi.

Ikkinchidan, qiyosiy metod asosida ingliz va o‘zbek tillaridagi terminlar taqqoslandi. Bu metod terminlarning semantik o‘xshashlik va farqlarini aniqlash imkonini berdi.

Uchinchidan, kontekstual tahlil metodi orqali terminlarning ilmiy maqolalar, texnik hujjatlar va terminologik lug‘atlardagi qo‘llanilishi o‘rganildi[8].

Tadqiqot materiali sifatida metallurgiya terminologiyasiga oid ilmiy manbalar, terminologik lug‘atlar va ilmiy maqolalar tanlandi.

Natijalar

Tadqiqot natijasida metallurgiya terminologiyasida polisemik terminlarning qiyosiy tahlili quyidagicha izohlanadi:

Агрегат / Агрегат / Aggregate

1. Tayyor mahsulot olishda aniq bir vazifani bajaruvchi qurilma.

2. O‘zaro uyg‘unlikda ishlovchi mexanik qurilmalar majmuasi.

3. Mayda zarrachalarning birikib yiriklashgan shakli.

- Faollik / Активность / Activity

1. Kimyoviy reaksiya qobiliyati.

2. Reagentlarning yoki ionlarning reaksiyadagi ishtirok darajasi.

3. Korroziya yoki flotatsiyadagi faol harakat ko‘rsatuvchi modda.

- Anod / Анод / Anode

1. Musbat qutbli elektrod.

2. Kuydirilmagan (green), kuydirilgan (baked), o‘z-o‘zidan kuydiriladigan (self-baking) holatlari mavjud.

- Faollashtiruvchi / Активатор / Activator

1. Kimyoviy reaksiya tezligini oshiruvchi modda.

2. Flotatsiyada zarrachalarni havo pufaklariga yopishtiruvchi modda[9].

- Affinaj / Аффинаж / Refining

1. Noyob metallarni ajratish.

2. Aralashmalardan tozalash.

3. Yuqori sifatli mahsulot olish usuli.

- Agglomerat / Агломерат / Agglomerate

1. Kukunli ruda va materiallar aralashmasining sinterlangan shakli.

2. Hosil bo‘lish usuli va tarkibiga qarab turlari mavjud: dolomitli, marganetsli, oksidli va h.k[10].

Ushbu terminlar bir nechta semantik funksiyaga ega bo‘lib, turli texnologik jarayonlarda turlicha ma’noda qo‘llanadi[12].

Tahlil natijalari metallurgiya terminologiyasida polisemiya hodisasi ilmiy tarjima jarayonida muhim muammolarni yuzaga keltirishini ko‘rsatadi[13].

Polisemik terminlar texnologik jarayonlarning turli jihatlarini bir termin orqali ifodalash imkonini beradi. Bu terminologiyaning ixchamligini ta’minlaydi, biroq kontekstni to‘g‘ri aniqlash zaruratini keltirib chiqaradi. Shu sababli tarjima jarayonida terminlarning aniq ma’nosini aniqlash uchun kontekstual tahlil muhim ahamiyatga ega[14].

Metallurgiya kabi texnik sohalarda terminologik aniqlik ilmiy axborot almashinuvi va texnologik rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi[15].

Xulosa

Polisemiya hodisasi terminologiyada bir so‘z orqali turli jarayonlar yoki material

xususiyatlarini tushuntirish imkonini beradi, bu esa nutqni ixcham, lekin ma’noli qiluvchi tilshunoslik vositasidir.

Polisemiya hodisasi, ayniqsa, yangi texnologiyalar, metallarning xususiyatlari va ishlov berish jarayonlarida yangi ma’nolar paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu esa terminlarning doimiy ravishda yangilanishi va izohli lug‘atlar orqali normallashtirilishini taqozo etadi. Ingliz tilida terminlarning semantik kengayishi xalqaro ilmiy adabiyot va texnik standartlarga bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek tilida bu jarayon ko‘proq adaptatsiya, tarjima va milliy lug‘iy imkoniyatlar orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, polisemik terminlar ikki tilning semantik tizimlarini qiyosiy tahlil qilishda qimmatli ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, polisemiya va omonimiya metallurgiya terminologiyasining muhim semantik xususiyatlari hisoblanadi. Polisemik terminlar turli texnologik jarayonlarni ifodalash imkonini bersa, omonim terminlar semantik aniqlikni talab qiladi. Tadqiqot natijalari metallurgiya terminologiyasini standartlashtirish, izohli terminologik lug‘atlar yaratish hamda ilmiy tarjima sifatini oshirish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madvaliyev, O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Tashkent, Uzbekistan: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.
2. Sh. Rahmatullayev, Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Tashkent, Uzbekistan: Universitet, 2010.
3. Yo‘ldoshev, Terminologiya asoslari. Tashkent, Uzbekistan: Fan, 2012.
4. N. Mahmudov, Til va terminologiya masalalari. Tashkent, Uzbekistan: Akademnashr, 2015.
5. M. Jo‘rayev, “O‘zbek tilida ilmiy terminlarning shakllanishi,” Filologiya masalalari, vol. 4, pp. 45–49, 2018.
6. S. Usmonov, Umumiy tilshunoslik. Tashkent, Uzbekistan: O‘qituvchi, 2009.
7. E. Begmatov, O‘zbek tili leksikologiyasi. Tashkent, Uzbekistan: Fan, 2013.
8. R. Rasulov, Terminologiya va uning taraqqiyoti. Tashkent, Uzbekistan: Fan va texnologiya, 2016.
9. Crystal, A Dictionary of Linguistics and Phonetics, 6th ed. Oxford, U.K.: Blackwell Publishing, 2008.
10. M. Teresa Cabré, Terminology: Theory, Methods and Applications. Amsterdam, Netherlands: John Benjamins Publishing, 1999.
11. J. Lyons, Semantics. Cambridge, U.K.: Cambridge University Press, 1977.
12. A. Wüster, Introduction to the General Theory of Terminology. Vienna, Austria: Springer, 1979.
13. Rey, “Terminology and lexicography,” Meta: Translators’ Journal, vol. 38, no. 2, pp. 203–212, 1993.
14. S. Sager, A Practical Course in Terminology Processing. Amsterdam, Netherlands: John Benjamins, 1990.
15. L. Bowker and J. Pearson, Working with Specialized Language: A Practical Guide to Using Corpora. London, U.K.: Routledge, 2002.